




JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES

VOLUME | 3 ISSUE | 7 DECEMBER 2025



AN ACADEMIC PLATFORM FOR IN-DEPTH
ANALYSIS OF THE CONTEMPORARY WORLD

VOLUME | 3 ISSUE | 7 | DECEMBER | 2025




JCWS

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISHNING YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIDAGI O‘RNI

¹ Eshboyeva Madina Bobomurot qizi, ² Eshboyev Temur Bobomurot o‘g‘li

¹ O‘zMU Jizzax filiali 2-kurs talabasi, ² Toshkent shahridagi INHA universiteti 4-kurs talabasi
e-mail: madinaeshboyeva885@gmail.com



ANNOTATION:

mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy va ilmiy merosidagi adolatlilik, haqgo‘ylik, insoflilik, kamtarinlik, kamsuqumlik, bilimdonlik, ezgulik, hushfe‘llik va shirinsuhanlik kabi fikrlarning yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga ta‘siri haqida fikr yuritilgan.

KEYWORDS:

“Boburnoma”, “Mubayyin”, “Hatti – Boburiy”, “Mufassal», adolatlilik, haqgo‘ylik, insoflilik, kamtarinlik, kamsuqumlik, bilimdonlik.

Accepted Date:

December 15, 2025,

Published Date:

December 25, 2025

Journal Website: <https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under
a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

Kirish

Temuriy shaxzodalar ichida ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalarida muhim rol o'ynagan yirik siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. U o'z davrila iste'dodli lashkarboshi va davlat arbobi, talantli yozuvchi va san'at, adabiyot hamda fanning qadrini biladigan atoqli olim bo'lgan. U O'rta Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, o'zining g'oyat samarali faoliyati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan shaxsdir.

Bobur o'ziga xos sifatlarga ega bo'lgan siymodir. U avvalo o'z davrining farzandi, murakkab ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning va g'oyaviy-siyosiy qarashlardagi, yo'nalishlardagi ziddiyatlarning mahsulidir. Uning serqirra hayoti va faoliyatiga tarixiy-konkret munosabatda bo'lmay turib, unga to'g'ri va atroflicha baho berish mumkin emas. Bobur ilm va fanniig, san'atning, umuman hayotning hamma sohaları bilan yaqindan qiziqqan. G'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste'dod Boburni o'z davrining ulug' namoyandalaridan biriga aylantirdi. U har bir sohani aniq bilishga intilgan, undagi nuqsonlarni ko'ra bilgan va masalaning mohiyatini tezda tushunib etgan. Masalai; o'zbek olimi, geografiya fanlari doktori, professor H.Hasanov uni faqat davlat arbobi emas, balki mashhur lashkarboshi, tarixchi, geograf, biolog, musiqachi va me'mor ham bo'lganini ta'kidlaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "Dunyo olim va adiblarining Bobur ijodiga munosabati, asosan, to'rt yo'nalishda kuzatiladi: Boburning podshoh sifatidagi siyosiy faoliyati (1), uning ijodi (2), "Boburnoma" asari va uni tarjima qilish (3) hamda Boburshohning shaxsi va jasorati xususida badiiy asarlar (4) yozish"¹¹.

11

<https://ares.uz/storage/app/uploads/public/62a/329/06e/62a32906eb5e1185099299.pdf>

Asosiy qism

Bobur ijodiyoti asosan uning lirik she'rlari va adabiy-tarixiy asari – "Boburnoma" bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Boburning xotiralaridan tashkil topgan va temuriylar davlatining tanazzulga ketish davrini o'zida ifodalagan, qomusiy xarakterdagi "Boburnoma" kitoby ilmiy-tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda tarix, geografiya, botanika va fanning boshqa sohalariga taalluqli qimmatli ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, mazkur asar eski turkiy tilidagi prozaning ilk namunasi va nodir yodgorligi hamdir.

Bobur ana shu solnomasida o'zi bo'lgan joylarning, jumladan Hindistonning tabiiy manzaralarini ham, mahalliy aholining kiyinishi va urf-odatlarini ham hayvonlari, qushlari hamda ularning qiliqlarini ham tasvirlaydi. O'zi tilga olgan narsalarni teran fikrli, o'tkir ko'zli rassom singari jozibali bayon kiladi.

Bobur o'rta asrlardagi Hindiston xalqlari tarixini o'zidan besh asr ilgari yashab ijod etgan Aby Rayhon Beruniy kabi mahorat bilan yorita olgan. Filologiya fanlari doktori S. Azimjonova shy masalani tahlil qilib, chiqargan xulosasida aytganidek, hind xalqi hayotining turli tomonlariga taalluqli materiallarning izchil bayon etilishi, originalligi va ishonarliligi jihatidan Beruniyning ma'lumotlariga faqat "Boburnoma"dagi ma'lumotlarni tenglashtirish mumkin. Beruniy va Bobur qadimiy hamda, o'rta asrlardagi Hindiston xalqlari madaniyat tarixining chinakam tadqiqotchilaridirlar. Ularning asarlari Hindiston tarixiga qiziquvchilar uchun asosiy manba sifatida xizmat qila oladi.

Iste'dod sohibi bo'lgan Bobur 12 yoshida podsho bo'lganidan boshlab, to umrining oxirigacha o'zi ko'rgan voqealarni, o'zi qatnashgan hodisalarni, ana shu voqea va hodisalarga dahldor bo'lgan yuzlab taryxiy shaxslar, hayotini, fan uchun muhim ahamiyatga molik ko'plab dalillarni adabiy shaklda yoritgan "Boburnoma" va she'rlar, devonidan tashqari, musulmonlik qoidalari va qonunshunoslikka bag'ishlangan "Mubayyin", arab alfavitini o'zgartirish to'g'risidagi "Hatti – Boburiy", aruz vazni va qofiya masalalariga doir "Mufassal», shuningdek, musiqa va harbiy san'at haqidagi asarlarini yaratdi. Bu asarlar turkiy adabiy til, adabiyot va ilm-fanning ravnaqida muhim ahamiyat kasb etdi.

Buyuk shoir, adib, tardaxchi va olim Boburning ilmiy-adabiy merosi hozir ham o'zining ma'lum tarixiy-ma'rifiy, ilmiy va estetik qimmatini saqlab kelmoqda. Uning ko'p qirrali merosida ta'lim-tarbiyaga, ya'ni etikaga oid biror maxsus kitob yoki risola mavjud bo'lmasada, deyarli hamma asarlarida hayotga va vatanga muhabbat hislarining yaqqol ifodasini, insonning yuksak burchi va kishilarning ma'naviy qiyofasi haqidagi teran fikr-mulohazalarni, fan va dinga munosabat masalalarini, yaxshi xulqli va odobli bo'lishga da'vatni, ilm-fan va ma'rifatni egallashga chaqiriqni, axloqiy va estetik g'oyalarni, jo'shqin va mazmundor hayot kechirishga targ'ib qilishni va hokazolarni ko'rish mumkin.

Fan va ma'rifatni yuqori darajada qadrlagan Bobur adabiyot, san'at va ilm ahli bilan doimo yaqin aloqada, ijodiy munosabatda bo'ldi, ylapra homiylik qildi, ilmiy-adabiy suhbatlar, mushoiralar uyushtirgan. U o'z davrida ilmga, berilgan odamlar juda kamligidan tashvishlanib, astoydil qiziqish, intilish hamda

mashaqqatli mehnat bilangina ilm olish mumkinligini va shunday qilish zarurligini quyidagicha ta'kidlaydi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak,
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.

Yozuv ham yarim ilm deb hisoblagan Bobur chiroyli va to'g'ri yozishga, fikrlarni aniq ifodalashga alohida ahamiyat bergan. Buni uning o'g'li Humoyunga yo'llagan ushbu maktubi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin:

"Bu xatlaringni, bitibsen va o'qumaysan ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'quyolmas eding. O'qolmagandan so'ng, albatta tag'ir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o'quvsa bo'ladir, vale asro' mutlaqtur. Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni "ot" bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'latur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur. G'olibu xat bitirda qohillig'ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'latur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bilan biti; ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qug'uchiga»¹².

Bobur ana shu maktubida o'z o'g'lini adolatli, haqgo'y, insofli bo'lishga, kamtarinlik va kamsuqumlikka undaydi. Bir she'rida:

Davlatqa etib mehnat elin unutm,
Bu besh kun uchun o'zungni asru tutma.

- deb yozgan Boburnng o'zi ham doimo ana shu qoidaga amal qilardi.

Ulkan so'z boyligiga ega bo'lgan va o'zbek adabiy tilining rivojida salmoqli o'rin tutgan "Boburnoma"da

¹² Xayriddin Sulton. Boburnoma. –T.:1996. – 76-b.

keltirilgan va asarning qimmatini oshirgan ajoyib rivoyatlar, ta'sirchan she'riy parchalar, jozibador iboralar, ayniqsa, "Hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, o'zi ham shunga yaqin donishmandona xulosalarga keldi: "Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning bila amal qilmoq kerak. Agar ota yamon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak"¹³. "Boburnoma"da buni isbotlovchi dalillar ko'p. Xatto, o'zi bilan taxt talashgan ukasi Jaxongir Mirzoga ham xiyonat va jabr qilmagan. Boburning "Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq" degan fikri hikmatli so'z darajasiga ko'tarilgan jumalari kishini bilimdonlik va ezgulikka, hushfe'llik va shirinsuhanlikka chaqiruvchi xitobdek eshitiladi.

Bobur kishining hayotdagi eng asosiy burchi hamma joyda ham o'zini tuta bilishdan va yaxshi xulq-atvorli bo'lishdan iborat ekanini ta'kidlab:

Xulqingni rost etgil, har sorig'aki, borsang,

"Ahsanta" der bori el, gar yaxshi ot, chiqarsang

- desa, boshqalarga doimo yaxshilik qilish eng olijanob fazilat ekanini ta'kidlab:

Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,

Kim degaylar dahr aro qoldi, falondin yaxshilig',

- kabi misralar orqali ifodalaydi. SHuning uchun ham u ilm fanning ahamiyatini chuqur his etib yuqorida aytganimizdek, o'zi juda qadrlagan ilm-fan kishilarini eng avvalo, ularning yurish-turishiga ko'pchilik, manfati uchun qilgan xizmatlariga qarab baholaydi.

Boburning fikricha, yoshlar ta'lim-tarbiyasida hayotning o'rni katta, lekin bunda hunar va mehnatda toblanish muhim rol o'ynaydi. Mehnat qilgan va

mashaqqat chekkan kishilardagina chinakam insoniy fazilatlar tarkib topadi.

Umuman, Bobur merosini o'rganishda uning davlat arbobi sifatidagi faoliyatida ham, adiblik ijodiyotida ham chuqur ziddiyatlar mavjudligini unutmash kerak. Chunki akademik V.Y.Zohidov ta'biri bilan aytganda: "Bobur o'ziga xos sifatlarga ega bo'lgan siymodir. U, avvalo o'z davrining farzandi, murakkab ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning va g'oyaviy-siyosiy qarashlardagi, yo'nalishlardagi ziddiyatlarning mahsulidir". U o'sha davrning hukmron mafkurasiga mos kelmaydigan fikrlarni ham, feodal hokimligi yaqqol ko'rinib turadigan qarashlarni ham aytar edi. O'z vatanini tashlab ketgan va begona yurtlarda yurganida doimo vatanini qo'msagan va qumsash barobarida o'z ishlarida xatolig' qilganligini ham sherlarida e'tirof etadi.

Toli' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.

Boburning juda ham ko'p qirrali faoliyatidagi ijobiy tomonlari uchun uni ota-bobolarimiz qadrlab kelganlar. Biz ham uni ulkan shaxs sifatida ulug'laymiz. Uning hayoti va ijodiy faoliyatida tar'ib qilingan adolatlilik, haqgo'ylik, insoflilik, kamtarinlik, kamsuqumlik, bilimdonlik, ezgulik, hushfe'llik va shirinsuhanlik kabi g'oyalardan ibrat olib yashasak o'ylaymanki yoshlar ta'lim-tarbiyasida uchrab turgan ayrim muammolarga echimlar topilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. – T.:1996.
2. Bobur. Boburnoma. Toshkent: 1989.
3. <https://ares.uz/storage/app/uploads/public/62a/329/06e/62a32906eb5e1185099299.pdf>

¹³ Bobur. Boburnoma. Toshkent: 1989. 169- b.

4. Kamolov D. YOSHLAR TARBIYASIGA HUQUQIY, AXLOQIY VA SIYOSIY MADANIYATNING UZVIY ALOQADORLIGI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 430-433.
5. Saitov S., Tuychieva N. Main factors affecting economic growth in the country and their dynamics //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 53-64.
6. Saitov S. et al. ZAMONAVIY FILOLOGIYA FANLARIDAGI DOLZARB MASALALAR //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 419-422.
7. Saitov S., Sattarova M. FACTORS AND RESULTS OF ENSURING HIGH RATES OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 201-208.
8. Kamolov D. THE MORAL VIEWS ON PUBLIC ADMINISTRATION AND LEADERSHIP IN NIZAMULMULK'S "THE POLICY" //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 47-50.
9. Saitov S., Asrayev S. MECHANISMS FOR INCREASING EMPLOYMENT THROUGH THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 335-339.
10. Kamolov D., Eshonqulov R. DEMOKRATIYANING AXLOQIY JIHATLARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 37-42.
11. Saitov S. Improvement of accounting and audit in road transport enterprises //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 02.
12. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 02.
13. Xo'jabekova R., Sirojiddin S. RAQAMLI AVLOD VA GUMANITAR TA'LIM: ZAMONAVIY CHAQIRIQLAR TALQINI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 372-375.
14. Камолов Д. Spiritual and moral environment of society //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 278-282.
15. Kholmuradovich B. K., Abduvaliyevich S. S. Improving Accounting and Audit in Automobile Transport Enterprises //PROCEEDINGS E BOOK. – C. 89.
16. Eshboyeva M., Eshboyev T., Saitov S. GREEN ECONOMY AS THE FOUNDATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT: GLOBAL PERSPECTIVES AND NATIONAL STRATEGIES //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 235-238.
17. Sarvar G., Sirojiddin S., Xushnudbek P. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 125-129.
18. Abduvaliyevich S. S. et al. WAYS TO STRENGTHEN THE BANKING SYSTEM AND IMPROVE MONETARY POLICY //BILGI ÇEŞMESI. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 60-63.
19. Abduvaliyevich S. S. et al. THE PURPOSES AND TASKS OF TRANSLATION AND ITS PROBLEMS //PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE. – 2025. – T. 2. – №. 19. – C. 37-40.